



O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI INTEGRAL INDEKS YONDASHUVI ASOSIDA BAHOLASHNING HUDUDIIY DIFFERENSIAL MODELII

i.f.d., prof. Shadiyeva Gulnora

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0001-7078-8815

gulnora.shodiyeva@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2024-2025 yillarda O'zbekiston hududlarida innovatsion tadbirkorlikning rivojlanish darajasi kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi hududlar o'rtasida innovatsion faollik va investitsion salohiyat ko'rsatkichlaridagi nomutanosiblik bilan asoslanadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida kontent-tahlil, solishtirma tahlil hamda induksiya va mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanildi. Muallif tomonidan Hududiy innovatsion tadbirkorlik indeksi (HITI) ishlab chiqilib, rasmiy statistik ma'lumotlar asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi. Natijalar hududlar o'rtasida sezilarli differensial rivojlanish mavjudligini ko'rsatdi. Yuqori indeksga ega hududlarda innovatsion infratuzilma va investitsiya konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, past indeksli hududlarda institutsional va moliyaviy cheklovlar mavjud. Maqolada innovatsion siyosatni hududiy differensial yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha strategik takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: innovatsion tadbirkorlik, hududiy rivojlanish, integral indeks, kichik biznes, startup, venchur moliya, innovatsion infratuzilma, iqtisodiy transformatsiya.

РЕГИОНАЛЬНО-ДИФФЕРЕНЦИРОВАННАЯ МОДЕЛЬ ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЛЬНОГО ИНДЕКСНОГО ПОДХОДА

д.э.н., проф. Шадиева Гулнора

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ развития инновационного предпринимательства в регионах Узбекистана в 2024–2025 годах. Актуальность исследования обусловлена существующей дифференциацией инновационной активности и инвестиционного потенциала между регионами. В методологической основе использованы методы контент-анализа, сравнительного анализа, индукции и логического обобщения. Автором разработан Интегральный индекс регионального инновационного предпринимательства (HITI), на основе которого проведены расчёты с использованием официальных статистических данных. Результаты исследования выявили значительную территориальную дифференциацию инновационного развития. В регионах с высоким индексом наблюдается развитая инновационная инфраструктура и концентрация инвестиций, тогда как в регионах с низкими показателями сохраняются институциональные и финансовые ограничения. Предложены стратегические направления совершенствования инновационной политики на основе дифференцированного регионального подхода.

Ключевые слова: инновационное предпринимательство, региональное развитие, интегральный индекс, малый бизнес, стартап, венчурное финансирование, инновационная инфраструктура, экономическая трансформация.

A REGIONALLY DIFFERENTIATED MODEL FOR ASSESSING INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN BASED ON AN INTEGRATED INDEX APPROACH

DSc, prof. **Shadiyeva Gulnora**
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the development of innovative entrepreneurship in the regions of Uzbekistan during 2024–2025. The relevance of the study is justified by the observed regional disparities in innovation activity and investment capacity. The research methodology is based on content analysis, comparative analysis, induction, and logical generalization. The author developed a Regional Innovative Entrepreneurship Index (HITI), and calculations were conducted using official statistical data. The results reveal significant territorial differentiation in innovation performance. Regions with higher index values demonstrate advanced innovation infrastructure and investment concentration, while regions with lower scores face institutional and financial constraints. The paper proposes strategic directions for improving innovation policy based on a differentiated regional approach.

Keywords: innovative entrepreneurship, regional development, integrated index, small business, startup ecosystem, venture financing, innovation infrastructure, economic transformation.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy transformatsiya jarayonlari jadallashib, innovatsion rivojlanish modeli davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda hududlar raqobatbardoshligini oshirish jarayonida innovatsion tadbirkorlik asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, hududlar kesimida tadbirkorlik faolligi va innovatsion salohiyat darajasini aniqlash iqtisodiy transformatsiya samaradorligini baholashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

2024–2025 yillarda mamlakatda kichik biznes subyektlari soni ortib borayotgan bo'lsa-da, hududlar o'rtasida tadbirkorlik zichligi, innovatsion loyihalarning tijoratlashuv darajasi, texnologik startaplar ulushi va investitsiyaviy faollik ko'rsatkichlarida sezilarli tafovutlar kuzatilmoqda. Mazkur nomutanosibliklar innovatsion rivojlanishning hududiy notekisligini yuzaga keltirib, iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025 yilning 25 dekabrda Oliy Majlis va xalqqa Murojaatnomasida iqtisodiyot hajmini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda investitsiyalar oqimini ko'paytirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish zarurligi alohida ta'kidlandi (Mirziyoyev, 2025). Ushbu yondashuv hududiy rivojlanishda innovatsion tadbirkorlikni strategik omil sifatida qarashni talab etadi.

Biroq makroiqtisodiy yutuqlar hududlarda tadbirkorlik faolligi va innovatsion salohiyatning bir xil sur'atda rivojlanishini avtomatik ta'minlab bermaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hududlar kesimida quyidagi ko'rsatkichlarda sezilarli farqlar mavjud:

- faol tadbirkorlik zichligi;
- innovatsion loyihalarning bozorga chiqish darajasi;
- texnologik startaplar soni;
- investitsiya resurslariga kirish imkoniyati;
- eksport kompetensiyasi va tashqi bozorga integratsiya darajasi.

Mazkur farqlar hududiy institutsional muhit, innovatsion infratuzilma rivojlanish darajasi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir.

Murojaatnomada 2026 yildan boshlab iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga bosqichma-bosqich o'tkazish, investitsiyalarning har bir dollari ilg'or texnologiyalar transferi va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishga xizmat qilishi lozimligi qayd etilgan. Bu esa hududiy darajada innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda "siyosat – infratuzilma – investitsiya – kompetensiya" integratsiyalashgan boshqaruv zanjirini shakllantirishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning an'anaviy vositalari (soliq imtiyozlari, kredit subsidiyalari, grantlar) bilan bir qatorda, innovatsion ekotizimni shakllantiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Bular jumlasiga:

- inkubator va akselerator markazlari;
- hududiy innovatsion ma'lumotlar bazasi;
- venchur moliyalashtirish instrumentlari;
- raqamli platformalar;
- eksportga chiqish bo'yicha mentorlik tizimi kiradi.

Mazkur mexanizmlarni hududlar kesimida differensial yondashuv asosida joriy etish innovatsion rivojlanishning barqaror modelini shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsion tadbirkorlik nazariyasi iqtisodiy tafakkur tarixida chuqur ildizlarga ega. Klassik yondashuvlarda tadbirkor riskni o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida talqin qilingan bo'lsa (Cantillon), keyinchalik ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi tashkiliy kuch sifatida izohlangan (Say). Zamonaviy talqinda esa innovatsion tadbirkorlikning nazariy asoslari Schumpeter (1934) tomonidan ishlab chiqilgan "ijodiy buzilish" konsepsiyasiga borib taqaladi. Unga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish yangi kombinatsiyalar va texnologik yangiliklar orqali amalga oshadi.

Endogen o'sish nazariyasi doirasida bilim va texnologik kapital iqtisodiy o'sishning asosiy determinantlari sifatida asoslab berilgan (Romer, 1990). Shuningdek, bilim spillover nazariyasi innovatsion faollik hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi (Acs, Audretsch and Lehmann, 2013; Audretsch, 2007). Baumol (2010) innovatsion tadbirkorlikni iqtisodiy tizimni dinamik muvozanatga olib keluvchi mikroiqtisodiy mexanizm sifatida talqin qiladi.

Hududiy rivojlanish kontekstida klaster nazariyasi (Porter, 1998) innovatsion faollikning geografik konsentratsiyasini tushuntiradi. Regional innovatsion tizimlar konsepsiyasi (Cooke, 2016; Nelson, 1993) innovatsion salohiyat davlat, biznes va ilmiy institutlar integratsiyasi orqali shakllanishini asoslaydi. Smart specialization modeli esa hududiy ixtisoslashuvni innovatsion siyosat markaziga qo'yadi (McCann and Ortega-Argilés, 2015).

Hududiy innovatsion rivojlanishda yaqinlik omili va bilim diffuziyasi muhim rol o'ynaydi (Boschma, 2005; Rodríguez-Pose and Crescenzi, 2008). Glaeser, Kerr and Ponzetto (2010) tadqiqotlari tadbirkorlik klasterlari urbanizatsiya va inson kapitali bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Florida (2014) esa "creative class" konsepsiyasi orqali innovatsion hududlar raqobatbardoshligini tushuntiradi.

So'nggi yillarda tadbirkorlik ekotizimlari konsepsiyasi keng rivojlandi (Isenberg, 2011; Stam, 2015; Acs et al., 2017). Ushbu yondashuvga ko'ra, innovatsion faollik infratuzilma, moliyaviy instrumentlar, institutsional muhit va inson kapitalining kompleks uyg'unligiga bog'liq.

Innovatsion rivojlanishni indekslash asosida baholash amaliyoti Global Innovation Index (WIPO, 2023), OECD SME Outlook (OECD, 2022) va Regional Innovation Scoreboard (European Commission, 2022) kabi xalqaro reytinglarda keng qo'llaniladi. Global Competitiveness Report (World Economic Forum, 2022) ham innovatsion salohiyatni milliy raqobatbardoshlikning asosiy omili sifatida belgilaydi.

Markaziy Osiyo kontekstida innovatsion tadbirkorlik institutsional omillar va moliyaviy kirish imkoniyatlariga bog'liq ekani qayd etilgan (ADB, 2023; World Bank, 2023). Hausmann and Rodrik (2003) iqtisodiy rivojlanishni "self-discovery" jarayoni sifatida talqin qilib, davlat siyosatining selektiv rolini asoslaydi. North (1990) esa institutsional muhit innovatsion rivojlanishning poydevori ekanini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, xalqaro adabiyotlar innovatsion tadbirkorlikni hududiy rivojlanish, institutsional sifat va bilim kapitali bilan uzviy bog'laydi. Biroq O'zbekiston hududlari kesimida integral indeks asosida kompleks baholash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

O'zbekiston sharoitida innovatsion rivojlanish masalalari bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ular asosan kichik biznes ulushi, investitsiya hajmi yoki bandlik ko'rsatkichlari bilan cheklangan. 2024–2025 yillar kesimida hududiy innovatsion tadbirkorlikni kompleks indeks asosida baholash bo'yicha ilmiy ishlanmalar mavjud emas. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda hududiy innovatsion tadbirkorlikni baholash uchun kontent-tahlil va solishtirma tahlil usullaridan foydalanildi. 2024–2025 yillar statistik ma'lumotlari asosida hududlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Xulosalar induksiya va mantiqiy umumlashtirish asosida shakllantirildi. Muallif tomonidan integral baholash ko'rsatkichi ishlab chiqilib, rasmiy ma'lumotlar asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2024–2025 yillarda O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish vazifasi hududiy darajada tadbirkorlik faolligining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini taqozo etmoqda. Respublika kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes sub'ektlari sonining o'sishi innovatsion faollik ko'rsatkichlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lsada, hududlar o'rtasida sezilarli differentsiatsiya saqlanib qolmoqda.

2024–2025 yillarda respublika bo'yicha kichik biznes sub'ektlari soni ortib bordi. Biroq ularning innovatsion faollik darajasi, startaplar ulushi va investitsiyalarni jalb qilish ko'rsatkichlari hududlarga ko'ra farq qiladi.

1-jadval

2024–2025 yillarda hududlar kesimida innovatsion tadbirkorlik ko'rsatkichlari

Hudud	Kichik biznes subyektlari soni (ming)	Innovatsion korxonalar ulushi (%)	Startaplar soni	Investitsiya (mlrd. so'm)
Toshkent sh.	125	18,5	420	12 500
Toshkent vil.	78	14,2	210	6 800
Farg'ona	72	12,9	185	5 900
Samarqand	69	11,4	160	5 300
Navoiy	31	7,2	65	2 400
Qoraqalpog'iston	28	6,5	52	2 100

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahri innovatsion tadbirkorlik ko'rsatkichlari bo'yicha mutlaq yetakchilikni saqlab qolmoqda. Bu yerda kichik biznes sub'ektlari soni 125 mingdan oshgan bo'lib, ularning 18,5 foizi innovatsion faoliyat bilan shug'ullanmoqda. Startaplar soni 420 tani tashkil etib, investitsiya hajmi 12,5 trillion so'mga yetgan. Bu holat

poytaxtda innovatsion infratuzilma, IT-parklar, akselerator dasturlari va moliyaviy institutlar rivojlangani bilan izohlanadi.

Toshkent viloyati va Farg'ona hududlarida ham innovatsion korxonalar ulushi 12–14 foiz atrofida bo'lib, investitsiya faolligi nisbatan yuqori. Samarqand viloyatida ham innovatsion faollik barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Aksincha, Navoiy va Qoraqalpog'istonda innovatsion korxonalar ulushi 6–7 foiz darajasida qolmoqda. Startaplar soni va investitsiya hajmi ham pastroq. Bu hududlarda innovatsion ekotizim hali to'liq shakllanmagan, venchur moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan va kadrlar salohiyati yetarli darajada emas.

Hududiy innovatsion salohiyatni kompleks baholash maqsadida muallif tomonidan ishlab chiqilgan Hududiy innovatsion tadbirkorlik indeksi (HITI) qo'llanildi. Indeks uchta asosiy komponent asosida hisoblandi: innovatsiya infratuzilmasi, investitsiya kirishi va startap faolligi.

2-jadval

2025 yil hududiy innovatsion tadbirkorlik indeksi

Hudud	Innovatsiya infratuzilmasi	Investitsiya kirishi	Startap faolligi	Indeks (0–1)
Toshkent sh.	0,85	0,90	0,88	0,88
Toshkent vil.	0,72	0,75	0,70	0,72
Farg'ona	0,69	0,68	0,66	0,68
Samarqand	0,65	0,63	0,60	0,63
Navoiy	0,48	0,52	0,45	0,48
Qoraqalpog'iston	0,44	0,46	0,40	0,43

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Indeks natijalari hududlar o'rtasida innovatsion tadbirkorlik salohiyatida yuqori darajada differentsiatsiya mavjudligini ko'rsatadi. Toshkent shahrida indeks 0,88 ni tashkil etgan bo'lsa, Qoraqalpog'istonda bu ko'rsatkich 0,43 darajasida.

Bu farqlar quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- innovatsion infratuzilmaning konsentratsiyasi;
- moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati;
- eksportga chiqish kompetensiyasi;
- kadrlar salohiyati va universitet–biznes integratsiyasi darajasi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, makroiqtisodiy o'sish barcha hududlarda innovatsion tadbirkorlikning bir xil rivojlanishini avtomatik ta'minlamaydi. Yuqori investitsiya oqimi va texnologik infratuzilma mavjud hududlarda innovatsion faollik yuqori sur'atda o'smoqda. Kam rivojlangan hududlarda esa an'anaviy tadbirkorlik ustun bo'lib, innovatsion faollik cheklangan.

Shuningdek, hududiy innovatsion faollik mehnat unumdorligi va eksport salohiyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekani aniqlandi. Indeks yuqori bo'lgan hududlarda qo'shilgan qiymat darajasi va texnologik mahsulot ulushi ham yuqori.

Olingan natijalar innovatsion siyosatni hududiy ixtisoslashuv asosida yuritish zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni:

- yuqori salohiyatli hududlarda venchur moliya va global bozorga chiqishni rag'batlantirish;
- o'rta darajadagi hududlarda universitet–sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish;
- past indeksga ega hududlarda innovatsion infratuzilmani yaratish va kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilash.

Xulosa qilib aytganda, 2024–2025 yillarda respublika kesimida innovatsion tadbirkorlikda ijobiy dinamika kuzatilgan bo'lsa-da, hududlar o'rtasidagi farqlar strategik darajada yondashuvni talab qiladi. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda yagona umummilliy siyosat bilan bir qatorda, maqsadli hududiy instrumentlar tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqot natijalari hududlar o'rtasida innovatsion tadbirkorlik rivojlanishidagi tafovutlar milliy iqtisodiy tizimda tarkibiy xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Taklif etilgan Hududiy innovatsion tadbirkorlik indeksi (HITI) modeli innovatsion infratuzilma konsentratsiyasi, investitsiya resurslariga kirish imkoniyati va startap ekotizimining yetuklik darajasi hududiy innovatsion faollikning asosiy determinantlari ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Olingan natijalar endogen iqtisodiy o'sish nazariyasi (Romer, 1990) hamda Shumpeterning innovatsion dinamika konsepsiyasi (Schumpeter, 1934) bilan uyg'un holda, bilimlar diffuziyasi va innovatsion kapital hududiy raqobatbardoshlikning strategik drayveri ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy o'sishning o'zi hududiy darajada muvozanatli innovatsion rivojlanishni avtomatik ta'minlamasligi aniqlandi; bu esa maqsadli va differensial siyosat instrumentlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot xulosalari asosida hududiy differensial innovatsion siyosat modelini amalga oshirish taklif etiladi. Yuqori indeksga ega hududlarda venchur moliya instrumentlarini kengaytirish va global bozor integratsiyasini chuqurlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi lozim. O'rta darajadagi hududlarda universitet–sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, texnologiya transferi va R&D faolligini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Past indeks ko'rsatkichlariga ega hududlarda esa innovatsion infratuzilmani shakllantirish, inson kapitali rivoji va institutsional salohiyatni mustahkamlash ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi zarur.

Shuningdek, innovatsion korxonalarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish strategik ahamiyatga ega. Xalqaro sertifikatlash, eksport mentorligi va konsalting dasturlarini yo'lga qo'yish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarning global raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Innovatsiya va investitsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli ravishda mustahkamlash maqsadida hududiy innovatsion g'oyalar reestri va investorlar bazasini integratsiya qiluvchi yagona raqamli platformani ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bunday platforma axborot asimmetriyasini kamaytiradi, investitsion qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va innovatsion ekotizim shaffofligini ta'minlaydi.

Nihoyat, HITI indeksi asosida har yillik monitoring va reyting tizimini joriy etish dalillarga asoslangan innovatsion boshqaruvni ta'minlash, hududlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va davlat innovatsion siyosatining samaradorligini baholash uchun institutsional instrument sifatida xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/ Литература / Reference:

Acs, Z.J., Audretsch, D.B. and Lehmann, E.E. (2013) 'The knowledge spillover theory of entrepreneurship', *Small Business Economics*, 41(4), pp. 757–774.

Acs, Z.J., Stam, E., Audretsch, D.B. and O'Connor, A. (2017) 'The lineages of the entrepreneurial ecosystem approach', *Small Business Economics*, 49(1), pp. 1–10.

ADB (2023) *Innovation and Entrepreneurship in Central Asia*. Asian Development Bank.

Audretsch, D.B. (2007) 'Entrepreneurship capital and economic growth', *Oxford Review of Economic Policy*, 23(1), pp. 63–78.

Baumol, W.J. (2010) *The Microtheory of Innovative Entrepreneurship*. Princeton: Princeton University Press.

- Boschma, R. (2005) 'Proximity and innovation', *Regional Studies*, 39(1), pp. 61–74.
- Cooke, P. (2016) 'Regional innovation systems', *European Planning Studies*, 24(8), pp. 1409–1423.
- European Commission (2022) *Regional Innovation Scoreboard 2022*. Brussels.
- Florida, R. (2014) *The Rise of the Creative Class*. New York: Basic Books.
- Glaeser, E.L., Kerr, W.R. and Ponzetto, G.A.M. (2010) 'Clusters of entrepreneurship', *Journal of Urban Economics*, 67(1), pp. 150–168.
- Hausmann, R. and Rodrik, D. (2003) 'Economic development as self-discovery', *Journal of Development Economics*, 72(2), pp. 603–633.
- Isenberg, D. (2011) 'The entrepreneurship ecosystem strategy', Babson Entrepreneurship Ecosystem Project.
- McCann, P. and Ortega-Argilés, R. (2015) 'Smart specialization and regional innovation policy', *Regional Studies*, 49(8), pp. 1291–1305.
- Mirziyoyev Sh. (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
<https://president.uz/oz/lists/view/8834>
- Mirziyoyev Sh. (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
<https://president.uz/oz/lists/view/8834>
- Nelson, R.R. (1993) *National Innovation Systems: A Comparative Analysis*. Oxford University Press.
- North, D.C. (1990) *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2025) *Hududlar kesimida kichik biznes va innovatsiya ko'rsatkichlari*.
- OECD (2022) *OECD SME and Entrepreneurship Outlook 2022*. Paris: OECD Publishing.
- Porter, M.E. (1998) 'Clusters and competition', *Harvard Business Review*, 76(6), pp. 77–90.
- Rodríguez-Pose, A. and Crescenzi, R. (2008) 'Research and development, spillovers and regional growth', *European Economic Review*, 52(1), pp. 92–113.
- Romer, P. (1990) 'Endogenous technological change', *Journal of Political Economy*, 98(5), pp. S71–S102.
- Schumpeter, J. (1934) *The Theory of Economic Development*. Cambridge: Harvard University Press.
- Stam, E. (2015) 'Entrepreneurial ecosystems', *European Planning Studies*, 23(9), pp. 1759–1769.
- WIPO (2023) *Global Innovation Index 2023*. Geneva: World Intellectual Property Organization.
- World Bank (2023) *World Development Report 2023*. Washington DC.
- World Economic Forum (2022) *Global Competitiveness Report*. Geneva.